

## KICHIKLAR ADABIYOTINING KATTA OLIMI

Gulnoza Abdullayeva Voxidjonovna  
*o‘qituvchi, Farg‘ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada taniqli olim Rahmatulla Barakayevning o‘zbek bolalar adabiyoti yuzasidan olib borgan tadqiqotlari, uning ravnaqiga qo‘sishgan hissasi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Rahmatulla Barakayev, bolalar adabiyoti, ma’rifiy-tarbiyaviy funksiya, mavzu, obraz.

O‘zbek bolalar she’riyati tom ma’noda XX asr boshlarida yuzaga keldi, bir asr davomida unib o‘sdi, jahon adabiyotining eng sara namunalaridan o‘rgandi. Bolalar shoir va yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlar adabiyotimizga ulkan hissa qo‘shti. Shu bilan birga bolalar adabiy tanqidchiligi, nazariy jihatdan o‘rganish ham yuzaga kela boshlandi.

Bolalar adabiyotining bugungi kundagi rivoji, adabiy jarayondagi o‘rni, tarixi, badiyati, hozirgi paytdagi yutuq va kamchiliklari haqida jiddiy tadqiqotlarni amalga oshirayotgan olimlar qatorida R.Barakaevning xizmatlari alohida e’tirofga loyiq. Olim o‘zbek bolalar adabiyotining eng dolzarb mavzulardagi ilmiy tadqiqotlari bilan jamoatchilik e’tiborini qozondi. Mumtoz adiblarimiz ijodida ham bolalar tarbiyasiga oid didaktik qarashlar singdirilgan asarlarni o‘rgandi. Chunonchi A.Navoiy ijodida ma’rifiylik, tarbiyaviylik, barkamol avlod tarbiyasi, shuningdek, uning asarlarida insonparvarlik g‘oyalarini, ma’rifiy-estetik xususiyatlarini tadqiq etib, bolalarbop asarlar, ularning ilk namunalari mumtoz adabiyotimizda ham akslanishini ko‘rsatib beradi. “Bolalikning tiyrak nigohi”, “Dilda darding bo‘lmasa” kabi maqolalarida bolalar adabiyoti va tanqidchiligi oldida turgan dolzarb vazifalarni bayon etadi. Q.Qahramonov ham bolalik olamini tasvirlashdan ko‘ra quruq pand-nasihat mazmunidagi asarlar kichkintoylar qiziqishini susaytirishini, didini o‘tmaslashtirishini, bolalar adabiyoti tanqidchiligi bu masalalar bilan jiddiy shug‘ullanish zarurligini aytib o‘tadi [Қахрамонов Қ.5.11].

R.Barakaev tadqiqotlari asosan o‘zbek bolalar adabiyotini paydo bo‘lish tarixi, shakllanishi, uni davrlashtirish, taraqqiyot tamoyillari va bugungi kunda bolalar adabiyotining o‘rni, mavzu va g‘oyasi, vazifasi, ijodkorning xos uslubiy mahorati kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. “Jonajonim she’riyat”[Barakayev R.3:88.] nomli kitobida 80-90 yillar bolalar adabiyotidagi ijodiy-uslubiy izlanishlarni tadqiq etgan, keyingi davr bolalar she’riyatidagi g‘oyaviy-badiiy izlanishlar, poetik yangilanish jarayonlarini ko‘rsatib bergen. Shuningdek, bolalar she’riyatidagi poetik yangilanish - qalamga olinayotgan obraz va detallarning ramziy mazmunga ega ekanligini alohida ta’kidlaydi. Olimning asosiy ilmiy ishi “XX asr boshlari o‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi”[Barakayev R.2:] mavzusida bo‘lib, unda o‘zbek bolalar adabiyoti va kitobxonligi qadim tarixga

egaligi, uning ildizlari xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liqligi, Avloniy asarlarida bolalar adabiyotiga oid risolalar mavjudligini isbotlab beradi. Olim bolalar adabiyoti namunalarini boshqa xalqlar singari dastlab bolalar kitobxonligi va bolalar adabiyoti kabi guruhlarga bo‘lingani bejiz emasligini aytadi.

Bolalar adabiyotini o‘rganish XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Bolalar uchun yaratilgan maxsus asarlar A.Avloniyning “Milliy adabiyoti”, Tavalloning “Ravnuqul islom”, Fitrat, Munavvarqorilarning asarlari bolalarga qiroat – o‘quv kitoblari sifatida bo‘lgan, ular darslik sifatida o‘qilgan. Olim 30-yillarda Hamzaning bolalar uchun yozgan va pedagogik xarakterga ega bo‘lgan bir qancha she’rlari va shoir Xislatning “Mushuk va sichqon” qissasi bolalarga atab ularning hayotidan olinib yozilgan asar, – deya baholaydi. Bundan kelib chiqadiki, bolalar uchun maxsus asarlar yaratish XX asrning 20-yillariga borib taqaladi, lekin ularni hayotini aks ettirish 30-yillardan boshlangan. Shunday qilib, olim R.Barakaev bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus adabiyotni vujudga kelish davrini XX asrning boshlari deb belgilaydi. Bolalar adabiyotini vujudga kelish davri bevosita ma’rifatparvarlik bilan bog‘liq. Jumladan Avloniy, Hamza, Munavvarqori kabi adabiyot jonkuyarlari yosh avlodni ma’rifatli qilish uchun bir qancha asarlar yozdilar. Olim davrlashtirish masalasiga to‘xtalib o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot bosqichlarini quyidagi to‘rt davrga tasniflaydi:

1. Ilm-ma’rifat va axloq-odob mavzularidagi didaktik asarlar – bolalar kitobxonligi bosqichi.
2. Bolalar uchun yaratilgan dastlabki badiiy asarlar – “paydo bo‘lish” bosqichi.
3. Bolalar uchun maxsus tasnif etilgan ilk asarlar (maktab, adabiyot darsliklari: alifbo va o‘qish kitoblari) – “tarkib topish” bosqichi.
4. Turli yoshdagи bolalar adabiyotlariga ajratiladigan maxsus bolalar adabiyoti – “shakllanish” bosqichi.

Birinchi bosqichida hali bolalar uchun maxsus yaratilgan asarlar bo‘lmaydi, ular umumadabiyotdagi axloqiy - ta’limiy asarlardan foydalanadilar. Bu “bolalar kitobxonligi” deb baholanadi. O‘zbek adabiyotida axloq-odob va ta’lim tarbiya masalalariga bag‘ishlangan asarlar shu bosqichga kiradi. Bular didaktik adabiyot namunalaridir. Sababi axloq-odob, ta’lim -tarbiya yoshlikdan o‘rgatiladi. O‘zbek bolalar adabiyotida bolalar uchun yaratilgan alifbo va o‘qish kitoblari nashr etila boshlandi. Binobarin, “O‘zbek bolalar adabiyotining maydonga kelishi, avvalo ma’rifatparvarlik harakati bilan bog‘liqdir”, – deydi R.Barakaev.[Barakayev R.4:386-396]

R.Barakaev o‘zbek bolalar she’riyatining shakliy va mazmuniy izlanishlar qay darajada va qachondan boshlab aks etayotganini ham tadqiq etadi. Dastlab

bolalar she’riyatida - alifbo she’rlar aks etgan bo‘lsa, XX asrning 30-yillariga kelib bolalar she’riyatida tom ma’noda bolalar obrazlari maydonga kela boshladи, unda tasvir usullaridan biri ota-ona, muallim-murabbiyning yosh avlodga bevosita murojaati, pand-nasihatni namoyon bo‘ldi. Didaktik mavzudagi she’rlar yaratildi, lirk qahramon sifatida bolaning o‘zi maydonga chiqdi. Bu davrda Sulton Jo‘ra, Zafar Diyor, Shukur Sa’dulla, Quddus Muhammadiy, G‘ayratiy, Ilyos Muslim singari professional bolalar shoirlari maydonga keldi. Jumladan, S.Jo‘ra “Tinish belgilarining majlisi” she’rida o‘quvchiga tinish belgilarning ahamiyatini uqtiradi. Bu she’r ilm - ma’rifat mavzusiga bag‘ishlangan asarlar orasida alohida ajralib turadi, ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan o‘ziga xos. Shoир oddiygina so‘z aytish yo‘lidan bormay, ularni tasvirini hayotdagi o‘xshashliklari yoki aksi yordamida ifoda etadi va har bir she’r sarlavhasida tinish belgilarini rasmini berib o‘tadi. Masalan, nuqta boshga, koptokka, fikrlar bekatiga o‘xshatilar ekan, bular uning asriy tashqi belgilaridan keltirib chiqariladi. Bolalar ham predmetning tashqi belgilarini topishga usta bo‘lishadi va ko‘pincha ularni shu bilan belgilashadi. Shoир o‘ziga xos o‘xshatishlardan mohirona foydalangan bo‘lib, didaktik ahamiyati ham ustun. Bu usulda ya’ni tinish belgilarining qoidasini o‘yin usulida berish bolalarda uni yodda saqlab qolishi oson kechadi va qoidani tez o‘zlashtiradi. She’r mazmun jihatdan bolalarga savod o‘rgatish bilan birga, tinish belgilarning o‘zi tilidan so‘zlashi, majlis qurishi va bu belgilarni ajoyib o‘xshatishlar asosida berilishi bolaga katta estetik ta’sir ko‘rsatadi. R.Barkaev S.Jo‘ra she’riyati haqida gapirganda “O‘zbek bolalar she’riyatida birinchilardan bo‘lib, ta’lim – tarbiya masalasiga muallim – shoир sifatida yondashdi”, – deya ta’kidlaydi. 30-yillar bolalar she’riyatida tabiat va hayvonot dunyosiga bag‘ishlangan talaygina she’rlar yaratilganligini aytib Zafar Diyorning “Archa”, “Yanvarda”, “Bahor yaqin”, “Navbahor”, “Bahor keldi”, A.Rahmatning “Gunafsha”, “Yoz oylari”, “Kuz oyi”, “Qishda”, “Tovus”, “Turna”, “To‘ti” va boshqalar, Sulton Jo‘raning “Bahorimiz”, “Yozgi yomg‘irdan so‘ng”, “Qish tuni” kabi ijodkorlarning ijod namunalar keltiradi. Lekin bu davrda bolalar she’riyatida ham biryoqlama ifoda uslubi, mafkuraviy holatlar aks etgani ham ko‘zga tashlanadi.

50-60 yillar bolalar adabiyoti namoyondalarining safi yanada kengayganini Po‘lat Mo‘min, Aziz Abdurazzoq, Miraziz A’зам, Safar Barnoev, Tursunboy Adashboev, Safar Ochil singari ko‘plab ijodkorlar qo‘silganini alohida ta’kidlab, bu davrda tinchlik, mehnat, do‘stlik mavzulari bosh mavzularga aylanganini ochib beradi.

70-80 yillar 1-yarmida o‘zbek bolalar adabiyoti, xususan, she’riyati haqida gapirganda, bu davrda hurfikrlikning keskin bo‘g‘ilishi, she’riyatda ma’jозиy fikrlarning kuchayishi, ijodkorning dardlari, imo-ishoralar, ramzlar, majozlarga

ko‘chishi bilan xarakterlansa, 80-yillarning ikkinchi yarmida tom ma’noda erksevarlik tuyg‘ularining ochiq-oydin namoyon bo‘lishiga olib keldi, bu davr o‘zbek bolalar she’riyati zimmasiga istiqlolimizning ijtimoiy-iqtisodiy zaminini yaratish kerak bo‘lgan yosh avlod ma’naviyatiga mas’ul bo‘lish vazifasi yuklatildi. Bu davrda T.Adashboyev, S.Barnoyev, Miraziz A’zam, Anvar Obidjon, Rauf Tolipov, Q.O’taev, A.Ko‘chimov, Rustam Nazar, H.Imonberdiev, K.Turdieva, S.Inoyatov, A.Akbar, D.Rajab, Z.Isomiddinov, O.To‘xtashev kabi o‘rta va yosh avlod namoyondalari 80-yillar o‘zbek bolalar she’riyatiga yangi nafas, toza ruh olib kirdi, deya e’tirof etadi.

Darhaqiqat, A.Obidjon she’riyatining nimkulgi bilan yo‘g‘rilgani, zukko kitobxon she’rlardagi ko‘chma ma’nolar yetakchi bo‘lsa, T.Adashboev ijodida o‘lkamizning tarixiy joylari va betakror tabiat tasviriga bag‘ishangan she’rlarida ona - Vatanga mehr - muhubbat tuyg‘ulari aks etgan, A.Akbar she’rlarida og‘ir - bosiq, o‘ychan, vaqtidan ilgariroq ulg‘ayib qolgan bolalar obrazi, D.Rajab she’rlarida sho‘x, o‘yinqaroq hamda aqlii bolalar obrazi namoyon bo‘lgan.

Bu davrda bolalar adabiyoti istiqlol tuyg‘ularining yuzaga kela boshlashiga haqiqiy, tom ma’nodagi ona Vatan, muqaddas zaminga mehr - muhabbat, tabiatni asrab - avaylash tuyg‘ularini shakllantirishga, bu vatanga munosib bo‘lish ruhida tarbiyalashga xizmat qilganini alohida ta’kidlash joiz. Bunday she’rlarda ramzlar, timsollar, ularning o‘ziga xos tomonlarini aks ettirish kuchaygani ko‘ramiz.

R.Barkayev istiqlol davri o‘zbek bolalar she’riyati haqida, bu davr she’riyatida navqiron avlod namoyondalari asarları alohida o‘rin tutishi va soni bilan emas, sifati bilan salmoqdorligi, madhiyabozlik, shiorbozlikdan yiroqligi shu bilan birga ularning asarlarida kitobxonni o‘ylashga, mustaqil fikrlashga undashi, qadriyatlar deb kelingan narsalarni qayta baholab, saragini sarakka, puchakka ajratishga o‘rgatishi bilan ajralib turishini aytib o‘tadi. Abdurahmon Akbar ijodini misol qilib keltiradi.

A.Akbarning “Bir daftar savol”[Akbar A.1.74.] turkumidagi she’rlarini yuksak baholaydi. Bu she’r Shuhratjon ismli bola tilidan berilgan savollardan iborat. Bolakay ularni turkumlarga ajratib ham qo‘yan. “Bekatda tug‘ilgan savollar”, “Yo‘lda tug‘ilgan savollar”, “Maktabda tug‘ilgan savollar”, “Uyda tug‘ilgan savollar” kabi. “Gulzor” deb atalgan bu keng bekatning atrofida nega gul o‘sma ? - deb o‘zi - o‘ziga savol beradi. Chunki uning nazdida (va aslida ham) ism jismiga mos bo‘lishi kerak edi-da. Bu savollar shunchaki savol emas, aslida ularning har biri katta ma’naviy - ma’rifiy mohiyatni kasb etadi.

Bu tahlillar bilan R.Barakaev bolalar she’riyatining bir qancha xususiyatlari va novatorona jihatlarini yuzaga chiqaradi. Va mazkur fikrlar asosida bolalar she’riyatini davrlashtirishda quyidagicha tasnif amalga oshirish mumkin:

1. XX asrning boshlari va 20-yillari (alifbo - she’rlar)
2. XX asrning 30-40 yillari (she’riyatni pand - nasihat namoyon bo‘la borishi)
3. XX asrning 50-60 yillari (tinchlik, do’stlik, mehnat, yaratuvchanlik, Vatan madhi mavzusidagi she’rlar asosiy o‘ringa chiqishi)
4. XX asrning 70-80 yillari
  - a) 1- yarmi hurfikrlilik bo‘g‘ib qo‘yilgan davri, ijodkor fikrlari, ramzlar va imo - ishoralar, majozlarga ko‘chishi (A.Obidjon, T.Adashboev she’rlari misolida)
  - b) 2-yarmi. Istiqlol shabadalari aks etgan she’rlar, erksevarlik, yangi nafas, yangicha ruh aks etishi, mavzu va obrazlar tizimini kengayishi, bolakaylarning turlicha qiyofalari aks etishi (T.Adashboev, A.Obidjon, H.Imonberdiev, A.Akbar, D.Rajab kabi ijodkorlar misolida)
5. XX asrning 90-yillardan bugungacha bo‘lgan davr. (vatan mavzusi keng o‘rin olishi, mazmun va shakliji jihatdan bir qancha yangilanishlarni aks etishi, ilm - ma’rifat, ta’lim - tarbiya bilan birga falsafiy mushohadalar keng o‘rin egallagan davr.)

Bu davrlashtirish shartli bo‘lib, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatini aks etgan. Bugungi davr bolalar she’riyati ifoda yo‘sini, qahramonlar turfaligi. Falsafiy mushohadaga boyligi, shakli va mazmuniy jihatdan o‘zgachaligi bilan ajralib turadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, R.Barakayev bolalar adabiyoti yuzasidan ko‘plab izlanishlar olib borgan va eng dolzarb mavzulardagi ilmiy tadqiqotlari bilan jamoatchilik e’tiborini qozongan. Olimning ilm yo‘lidagi xizmatlari bilan bir qatorda chin insoniylik hislatlari ham alohida e’tibor va e’tirofga loyiq. Ustoz muloqotda samimiyligi, bolalarcha beg‘ubor va oqko‘ngilligi, insonlar bilan barchaga birday munosabatda bo‘lishi chin olimlik xususiyatlarini yanada oshirgan.

Ustoz Farg‘onaga tashrif buyurganlarida shu yo‘nalish bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan biz yoshlardan o‘zlarining qimmatli vaqtlarini ayamay, erinmay bir qator maslahat va to‘g‘ri yo‘nalishlar bergen. Xatto, o‘zining ilmiy asarlarini ko‘pini taqdim qilgan. Men olimning shu qadar ochiqko‘ngil, ilm borasida sahiyligiga lol qolganman va ustozga ko‘rsatgan to‘g‘ri yo‘llari, bergen bilimlariga tashakkur aytaman.

### **Adabiyotlar**

1. Akbar A. Uyquching tushlari.-Т.: Sharq. 2006.-74b.
2. Баракаев Р. XX аср бошларидағи ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Фил.фан.номз... дисс. –Т.:1994. -166б
3. Баракаев Р. Жонажоним шеърият.–Т.: Чўлпон,1997.-88б
4. Баракаев. Р. Ўзбек болалар адабиёти қачон майдонга келган//Ўзбек адабий танқиди. Тошкент, “Турон - Иқбол” - 2011. 386 - 396 б.

**“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI”  
MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-NAZARIY OFLAYN-ONLAYN ANJUMANI**

**PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI**

5. Қахрамонов К. Толмас тадқиқотчи. // Танқид ва адабиётшунослик. 2014-йил 14-март № 11-сон.
6. Gulnoza Abdullayeva Abdurahmon Akbar ijodida uslubiy izlanishlar. Research. Section 3: “Actual problems of classical and modern uzbek literature”. (<http://doi.org/10.47100/>. vli2.204) 26.12.2020 B. 86-92